Banklar tomonidan muammoli kreditlar bilan ishlash samaradorligini oshirish yo'llari ("Agrobank" ATB misolida).....	1167
Yusufov Xurshidjon Sharifovich	
Namangan viloyatida don va don mahsulotlari narxini shakllanishining bozor tadqiqoti.....	1172
Bahriddinov Jahongirbek Ravshanjon o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi va xorijda tog' turizmini rivojlantirish omillarini qiyosiy baholash	1177
Mavlanov G'olibjon Muhammad o'g'li	
Improving The Effective Use Of Local Taxes And Levies In Tashkent City	1182
Shahzad Zokhidov	
Совершенствование методологии механизмов налогообложения ресурсного налога	1186
Мухиддинов Талат Шайдулло угли	
Tadbirkorlik faoliyatida investitsiya muhitining xususiyatlari va chet el kapitalining jozibadorligi.....	1189
I. M. Kamoliddinov, To'khtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Kichik biznes tarmoqlariga investitsiyalarni jalb etish xususiyatlari.....	1194
Abdug'aniyev Murodjon Shavkat o'g'li	
Inson resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish orqali iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish.....	1199
Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li	
Organik qishloq xo'jaligiga o'tishning rivojlanayotgan mamlakatlardagi iqtisodiy va ekologik afzalliklari.....	1203
Ahrorov Farhod Baxriddinovich	
Korxonalarda uzumchilik mahsulotlarni ishlab chiqarishda strategik boshqarishda mintaqaviy klaster modellashtirishdan foydalanish.....	1208
Muhitdinov Asror Akobirovich	
Qashqadaryo viloyatida ishsizlik darajasini istiqbolda kamaytirish ssenariylari	1213
Djumayev Zayniddin Axmedovich, Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li	
Kam ta'minlangan oilalarda tadbirkorlik faoliyatini o'ziga xos yo'llari va imkoniyatlari	1219
Tursunov Nozimjon Nosirovich	
Korxonalar samaradorligini oshirishda soliqlar va soliq siyosatining ahamiyati.....	1223
Saida Yuldasheva	
The Contribution of Ecotourism in Developing Gdp in Uzbekistan	1227
Saidova Dildora Nurmatovna, Umarov Husanboy Bahromjon o'g'li, Xolyigitov Umidjon Alijon o'g'li	
Mehmonxonalar faoliyatini moliyalashtirish imkoniyatlarini oshirishda turizmning o'rni.....	1231
Abduraxmanova Ziyoda Abdullayevna	
O'zbekistonda tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etilishi va undagi asosiy o'zgarishlar tahlili.....	1237
Normurzayev Umid Xolmurzayevich	



Tog' va tog'oldi hududlari qishloq xo'jaligini ixtisoslashtirish va rivojlantirish yo'llari.....	1245
Abdulxayeva Gulshan Maxmudovna	
Правовые основы маркетинговых стратегий акционерных обществ в Республике Узбекистан	1250
Эркинов Шахзод Баходир ўғли	
O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik subyektlarining yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish hisobiga budjet daromadlari barqarorligini baholash amaliyoti.....	1254
Ikramov Ravshan Amanbayevich	
Uzum-vinochilik mahsulotlari bozorida eksportni diversifikatsiyalash strategiyalaridan foydalanish	1261
Azadova Bonuposhsha Alisher qizi	
Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashning nazariy asoslari.....	1266
Sadikov Iskandar Gayratovich	
Milliy soliq to'lovchilar faoliyatini rag'batlantirishda ikki yoqlama soliqqa tortishni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari.....	1272
Rajapov Shuxrat Zaripbaevich	
Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari.....	1277
Qorriyeva Shahnoza Safarboyevna	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos xususiyatlari	1281
Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna	
Xizmat ko'rsatish sohasini raqamlashtirishning ahamiyati va zaruriyati	1284
Mirzayev Qulmamat Janzakovich, Djurakulov Shoxrux Baxtiyorovich	
Yog'moy korxonalarining xom ashyo ta'minotini amalga oshirishning zamonaviy konsepsiyalari	1289
Jo'rayeva Nodiraxon Qurbonovna	
O'zbekistonda mulkdorlar sinfini shakllantirishning ilmiy-metodologik yo'nalishlari va rivojlanish bosqichlari.....	1294
Berkinov Bazarbay Berkinovich	
O'zbekiston sug'urta bozorini rivojlanishi istiqbollarini ta'minlash omillari.....	1300
X. I. Boyev	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar innovatsion faoliyatini boshqarishda jahon tajribasi.....	1305
Saipova Dilnoza Shuxratovna	
Mintaqa sanoatini innovatsion rivojlantirish indikatorlarining iyerarxiyasi.....	1310
Muhammadiyev Sardorbek Shokir o'g'li	
Korxonalarda moliyaviy qarorlarni qabul qilishning muhimligi.....	1315
Allayarov Shamsiddin Amanullaevich, Yoqubov Madaminbek Abdurahim o'g'li	
Mehmonxonalarda boshqaruv tizimi va uni takomillashtirish.....	1320
Qalandarova Gulnoza, Botirova Zumrad	
O'zbekistonda maktab va maktabgacha talim tizimini moliyashtirishni takomillashtirish.....	1324
Boltaboyev Murodbek Aybekovich	
Mehnat resurslarini samarali boshqarishda jahon tajribasi.....	1329
Xonnazarova Dilobar Qutbiddin qizi, Sobirjonov Sanjar Sobirjonovich	
Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash.....	1333
Annaklichev Saxi Saparmuxamedovich	
O'zbekiston Respublikasida "Iqtisodiy erkinlik indeksi"ning davlat aralashuvi darajasi yo'nalishida yuqori natija qayd eta olish imkoniyatlari va buning oqibatlari	1337
Qoraboyev Bobur Umarovich, Abdiyev Mansur Musurmonovich, Ravshanov Shaxriyor Shuhratovich, Mamataliyev G'ayrat Chori o'g'li	



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA "IQTISODIY ERKINLIK INDEKSI"NING DAVLAT ARALASHUVI DARAJASI YO'NALISHIDA YUQORI NATIJA QAYD ETA OLISH IMKONIYATLARI VA BUNING OQIBATLARI

PROGRESS
ПРОГРЕСС
TARAQQIYOT



Qoraboyev Bobur Umarovich

G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot
universiteti Toshkent filiali o'qtuvchisi



Abdiyev Mansur Musurmonovich

Bank moliya akademiyasi MBA magistranti



Ravshanov Shaxriyor Shuhratovich

Bank moliya akademiyasi MBA magistranti



Mamataliyev G'ayrat Chori o'g'li

Bank moliya akademiyasi MBA magistranti



Annotatsiya: Tadqiqotda “Heritage Foundation” tashkilotining “Iqtisodiy erkinlik indeksi”ning davlat aralashuvi darajasi yoʻnalishida yuqori natija qayd etishga urinishning salbiy oqibatlari oʻrganilgan va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit soʻzlar: Iqtisodiy erkinlik indeksi, davlat aralashuvi darajasi, soliq yuki, davlat xarajatlari, fiskal salomatlik, soliq tushumlarining YAIMga nisbati, konsolidatsiyalashgan budjet xarajatlari, budjet defitsitining oxirgi 3 yillik oʻrtachasi, davlat qarzining YAIMga nisbati, toʻliq erkinlikni kafolatlagan davlatlar, barqaror rivojlanish kafolati, KPI koʻrsatkichlari.

Abstract: The study examines the negative consequences of trying to score high on the level of government intervention in the Heritage Foundation’s Index of Economic Freedom and makes recommendations.

Key words: Index of economic freedom, level of government intervention, tax burden, government spending, fiscal health, ratio of tax revenues to GDP, consolidated budget expenditures, budget deficit average of the last 3 years, ratio of public debt to GDP, “guaranteeing full freedom” countries, guarantee of sustainable development, KPI indicators.

Аннотация: В исследовании рассматриваются негативные последствия попыток получить высокий балл по уровню государственного вмешательства в Индексе экономической свободы Heritage Foundation и даются рекомендации.

Ключевые слова: Индекс экономической свободы, уровень государственного вмешательства, налоговое бремя, государственные расходы, финансовое здоровье, соотношение налоговых поступлений к ВВП, расходы консолидированного бюджета, средний дефицит бюджета за последние 3 года, соотношение государственного долга к ВВП, “гарантии полной свободы” страны, гарантия устойчивого развития, показатели КПЭ.

KIRISH

“Heritage Foundation” tashkiloti 1995-yildan boshlab ^[1] mamlakatlarning 12 ta yoʻnalishdagi iqtisodiy erkinlik darajalarini aniqlab keladi. Tasdiqlangan uslubiyatga ^[2] koʻra mamlakatlar 100 ballik tizimda (0 ball – salbiy, 100 ball – ijobiy koʻrsatkich) baholanadi.

Iqtisodiy erkinlik indeksi mamlakatlarga oid maʼlumotlarni turli xalqaro manbalardan olganligi sababli “Davlat aralashuvi darajasi” (soliq yuki, davlat xarajatlari va fiskal salomatlik pozitsiyalarida) yoʻnalishidagi maʼlumotlar 4 yilgacha boʻlgan kechikishga ega, yaʼni indeksda 2021-yil uchun keltirilgan natijalar aslida 2017–2018-yildagi xolatni koʻrsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro amaliyotda shuni koʻrsatadiki fiskal siyosat orqali davlat harajatlari, soliqqa tortish va davlat budjeti, hukumatning daromad va xarajatlarini tartibga solish orqali davlat tomonidan amalga oshiriladigan moliyaviy chora tadbirlardir.

Davlatlar iqtisodiyotining har bir bosqichida “soliq” tushunchasi “davlat” toifasi bilan chambarchas bogʻliqdir. Soliqlar iqtisodiy munosabatlarning asosiy boʻgʻini hisoblanishi bor gap, shuning uchun tadqiqotimizda fiskal siyosatda soliqning “iqtisodiy erkinlik indeksi” ga tasiri, “Davlat aralashuvi darajasi”ning Soliq stavkalari, soliq yuki va fiskal salomatlik koʻrib chiqiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda Oʻzbekistonning “Iqtisodiy erkinlik indeksi” “Davlat aralashuvi darajasi” yoʻnalishidagi joriy xolatida nimalarga eʼtibor berish, Jahon bankining mavjud hisobotidan foydalangan holda qanday koʻrsatkichlarga erishilish mumkinligi ushbu hisobotda olinishi mokin boʻlgan takliflarning iqtisodiy samaradorligi koʻrib chiqiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oʻzbekistonning “Iqtisodiy erkinlik indeksi” “Davlat aralashuvi darajasi” yoʻnalishidagi joriy xolati. Soliq stavkalari boʻyicha maʼlumotlar Jahon bankining “Doing Business” hisobotidan foydalangan holda tayyorlab kelingan, “Doing Business” hisobotini eʼlon qilish 2019-yilda toʻxtatilgani bois, Oʻzbekiston uchun iqtisodiy erkinlik indeksi 2018-yildagi maʼlumotlar asosida aniqlangan.

Shu munosabat bilan soliq yuki indikatori boʻyicha baholash ishlarini amalga oshirganda subindikatorlar sifatida:

- 1) jismoniy shaxslarning daromad soligʻi stavkasi 22% (2019-yilgacha amalda boʻlgan progressiv soliqning eng yuqori stavkasi, lekin olingan 2019-yildan beri Oʻzbekistonda 12%lik proporsional stavka amal qiladi);
- 2) foyda soligʻi stavkasi 7.5% (2018-yilda amalda boʻlgan foyda soligʻi stavkasi olingan boʻlsa-da, 2018-yilgacha amalda boʻlgan 8% infrastruktura soligʻi kiritilmagan, hozirda mazkur soliq stavkasi 15%ni tashkil etadi);



- 3) soliq tushumlarining YAIMga nisbati – 19.6%lik (2018-yilda Davlat budjeti daromadlari qismi olingan bo'lib, maqsadli jamg'armalar mablag'lari kiritilmagan, hozirda – 23.7%) ko'rsatkichlar olingan. Soliq stavkalaridagi eng oxirgi o'zgarishlar esa indeks tomonidan inobatga olinmagan.

Davlat xarajatlari indikatori bo'yicha 2022-yilgi hisobotda davlat xarajatlari YAIMga nisbatan 27.0%ni (2019-yildagi holat) tashkil etgan, lekin aslida 2022-yil uchun bu ko'rsatkich hozirda 32.4%dan yuqori bo'lishi kutilmoqda.

Fiskal salomatlik indikatori bo'yicha:

- 1) 2021-yil uchun budget defitsitining oxirgi 3 yillik o'rtachasi sifatida olingan 0.6%lik qiymat 2018-yilga taalluqli bo'lib, 2022-yil uchun bu ko'rsatkich -2.02% atrofida bo'lishi mumkin;
- 2) davlat qarzining YAIMga nisbati bo'yicha esa 2020-yilgi ko'rsatkichlardan foydalanilgan– 37.9% (2022-yil uchun 36.0%^[3]).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-iyundagi PF-6003-son farmonida O'zbekiston Respublikasi uchun ustuvor bo'lgan xalqaro reyting va indekslar bo'yicha samaradorlikning eng muhim ko'rsatkichlari (Key performance indicator – KPI) belgilangan.

Mazkur normativ-huquqiy hujjatga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 23-avgustdagi PF-197-son farmoni asosida kiritilgan o'zgartirishga asosan, iqtisodiy erkinlik indeksining soliq yuki, davlat xarajatlari va fiskal salomatlik pozitsiyalari bo'yicha quyidagi KPI ko'rsatkichlari belgilangan.

1-jadval: Iqtisodiy erkinlik indeksi (soliq yuki, davlat xarajatlari va fiskal salomatlik pozitsiyalari) bo'yicha KPI ko'rsatkichlari

№	Ko'rsatkich nomlari	Joriy holat	2022-yil	2023-yil	2030-yil
1.	Soliq yuki	90.8	91.3	91.9	95.7
2.	Davlat xarajatlari	78.1	79.4	80.6	89.4
3.	Fiskal salomatlik	96.6	96.9	97.2	99.5

O'zbekistonning KPIga erishishi uchun zarur bo'lgan ko'rsatkichlar tahlili: Soliq yuki. "Heritage Foundation" soliq yuki subindikatori bo'yicha 2022-yilgi hisobotida O'zbekiston Respublikasi uchun 2019-yilgi ma'lumotlardan foydalanishi natijasida 2022–2023-yillar uchun o'rnatilgan KPI ko'rsatkichlariga qiyinchiliklarsiz erishish mumkin.

O'zbekistonda jismoniy shaxslarning daromad solig'i va foyda solig'i bilan bog'liq muammolar mavjud emas. Iqtisodiy erkinlik indeksining mavjud uslubiyaiga ko'ra, daromad solig'ining 12% va foyda solig'ining 15% atrofida o'rnatilishi yetarli darajada kichik stavka hisoblanadi (daromad solig'i – 95.6 ball, foyda solig'i – 93.3 ball).

2-jadval: Soliq yuki subindikatori bo'yicha KPIga erishish uchun zarur bo'lgan ko'rsatkichlar*

№	Ko'rsatkichlar	2022-y. (qiymat)	KPI 2022-y.	2023-y. (qiymat)	KPI 2023-y.	2030-y. (qiymat)	KPI 2030-y.
1	JSHDS stavkasi	12	95.68	12	95.68	12	95.68
2	Foyda solig'i stavkasi	15	93.25	15	93.25	12	95.68
3	Soliq tushumlarining YAIM ga nisbati	22.4	84.95	21	86.77	12	95.68
Jami			91.3		91.9		95.7

*Hisoblash metodologiyasi har bir komponent bo'yicha $100 - 0.03 \cdot (\text{qiymat})^2$ (95.68, 93.28 va 84.95) hisoblanib, o'rta arifmetigi (91.3 ball) olinadi.

Soliq tushumlarining 2019-2021 yillardagi YAIMga nisbati o'rtacha 18.7%ni [4] (89.5 ball) tashkil etgan. Mazkur ko'rsatkichlar bilan O'zbekiston Iqtisodiy erkinlik indeksining soliq yuki pozitsiyasi bo'yicha 2022–2023-yillar uchun belgilangan KPI ko'rsatkichlaridan ham yuqori 92.8 ballik natijani qayd etadi.

2030-yil uchun o'rnatilgan KPI ko'rsatkichlariga erishish, budget tizimida keskin o'zgarishlar talab qiladi, ya'ni soliq tushumlarining YAIMga nisbatini va foyda solig'i stavkasini 12%gacha tushirish talab etiladi.

Davlat xarajatlari bilan manipulyatsiya qilish imkoniyatlari cheklanganligi bois, soliq tushumlarining keskin qisqarishi qisqa muddatli davrda budget defitsiti, uzoq muddatli davrda esa tashqi qarzning oshib ketishiga olib kelishi mumkin.

Davlat xarajatlari. O'zbekiston Respublikasi KPI ko'rsatkichlariga erishish uchun esa Davlat xarajatlarining YAIMga nisbati 2022-yil 26.2% ko'rsatkichdan 2030-yil uchun 18.8%gacha tushirish talab etiladi.

**3-jadval: Davlat xarajatlari subindikatorini bo'yicha KPIga erishish uchun zarur bo'lgan ko'rsatkichlar***

№	Ko'rsatkichlar	2022-y. (qiymat)	KPI 2022-y.	2023-y. (qiymat)	KPI 2023-y.	2030-y. (qiymat)	KPI 2030-y.
1	Davlat xarajatlari (YAIM %)	26.2	79.4	25.4	80.6	18.8	89.4

* Hisoblash metodologiyasi. Davlat xarajatlari = $100 - 0.03 \cdot \text{qiymat}^2$ (79.4).

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarning talab qilinadigan darajasini ta'minlash maqsadida budjetdan moliyalashtirish hajmini oshirib borayotganligi sababli mazkur indikator bo'yicha o'rnatilgan KPI ko'rsatkichlariga erishish, balki uni bugungi kun darajasida saqlab turish ham mutlaqo imkonsiz hisoblanadi.

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasida davlat xarajatlarning YAIMga nisbati 2018-yildan boshlab o'sib kelayotgan bo'lsa, ikkinchidan, "Heritage Foundation" tashkiloti Davlat xarajatlari subindikatorini hisoblash uchun foydalanadigan ma'lumotlar bazasida O'zbekiston Respublikasi konsolidatsiyalashgan budjet xarajatlari aks ettirilishi natijasida davlat xarajatlarning YAIMga nisbati yanada kattaroqni tashkil etishi mumkin.

Davlat xarajatlarning YAIMga hozirgiday ko'rinishda (jadval 4) bo'lganligi sababli, kelgusida mazkur subindikatorning qiymati hozirgi 78.1 ballik ko'rsatkichdan 66.7 ballgacha tushib ketadi.

4-jadval: O'zbekiston Respublikasida davlat xarajatlarning YAIMga nisbati va kutilayotgan subindikator qiymatlari

№	Ko'rsatkichlar	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.
1	Davlat xarajatlari (YAIM%)	24.8	27.3	28.2	29.6	32.4
	Subindikator qiymati (ball)	81.5	77.6	76.1	73.7	68.5
2	Konsolidatsiyalashgan budjet xarajatlari	-	30.2	31.2	33.5	33.3
	Subindikator qiymati (ball)	-	72.6	70.8	66.3	66.7

Davlat xarajatlari yo'nalish bo'yicha KPI ko'rsatkichiga erishishga majburlash kelajakda mamlakat iqtisodiyotining rivojiga emas, balki iqtisodiyotning retsessiyaga tushib qolishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, davlat xarajatlarning keskin qisqartirilishi aholining ijtimoiy himoyalanganlik darajasiga salbiy ta'sir o'tkazib, aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini pasaytirib yuboradi. Bu yesa uzoq muddatli davrda ijtimoiy inqirozlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Fiskal salomatlik. Fiskal salomatlik subindikatorini bo'yicha 2022 va 2030-yillar uchun o'rnatilgan KPI ko'rsatkichlariga nazariy jihatdan erishish mumkin bo'lsada 2023-yilgi KPI ni ta'minlab beruvchi nazariya ham mavjud emas.

5-jadval: Fiskal salomatlik subindikatorini bo'yicha KPIga erishish uchun zarur bo'lgan ko'rsatkichlar*

№	Ko'rsatkichlar	2022-y. (qiymat)	KPI 2022-y.	2023-y. (qiymat)	KPI 2023-y.	2030-y. (qiymat)	KPI 2030-y.
1	Budjet defitsitining oxirgi 3 yillik o'rtachasi	-0.98%	98.1	xxx	91.3	0	100
2	Davlat qarzining YAIMga nisbati	28	92.2	xxx	100	15.7	95.7
	Jami		96.9		97.2		99.5

* Hisoblash metodologiyasi: budjet defitsiti $X1 = 100 - 2 \cdot \text{qiymat}^2$ (98.1), tashqi qarz $X2 = 100 - 0.01 \cdot \text{qiymat}^2$ (92.2), umumiy qiymat $= X1 \cdot 80\% + X2 \cdot 20\%$ (96.9).

Mazkur yo'nalishda 2022-yilgi KPI ko'rsatkichlariga erishish uchun O'zbekiston Respublikasi yil yakuniga qadar YAIMning 10%ga teng bo'lgan Davlat qarzini so'ndirishi kerak bo'ladi. Qarz majburiyatlarini belgilangan muddat avval zaxiralar hisobidan qoplash iqtisodiy samarasiz bo'lib, davlat moliya tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Keyingi yilda subindikatorning birinchi komponenti (budjet defitsitining oxirgi 3 yillik o'rtachasi) – 2.1%ni tashkil etishi natijasida, hozirda YAIMning 36%ga teng bo'lgan Davlat qarzini to'liq qaytarib berib ham 2023-yilgi KPI ko'rsatkichlariga erishib bo'lmaydi.

2030-yilgi KPI ko'rsatkichlariga esa budjet intizomini yaxshilash hamda, davlat qarzi hajmini YAIM nisbatan 15.7%ga teng darajada saqlab turgan holda erishish mumkin.

Bundan tashqari 2021-yil 30-dekabrda "2022-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi O'RQ-742-son O'zbekiston Respublikasi qonunining 10 va 11-moddalarida Davlat qarzining xavfsiz darajasi sifatida YAIMning 60%dan, konsolidatsiyalashgan budjeti taqchilligining YAIMning 3% atrofida bo'lishi belgilangan. Davlat qarzi va budjet taqchilligi ko'rsatkichlarining O'RQ-742 sonli qonunda bo'lishi, 2030-yil uchun ko'rsatilgan 99.5 ballik KPI ko'rsatkichi o'rniga 78.4 ballik darajagacha tushirib yuboradi.



Oxirgi yillardagi COVID-19 pandemiyasi bilan bog'liq yuzaga kelgan murakkab vaziyat, jahondagi geosiyosiy ziddiyatlar va qator davlatlar o'rtasida sanksiyalarni qo'llash siyosati natijasida yuzaga kelayotgan inqirozlarning ketma-ket tarzda davom etishi nafaqat jahon iqtisodiyotiga, balki O'zbekiston iqtisodiyotiga ham turli darajada salbiy ta'sir ko'rsatdi. Iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat xarajatlarning ko'paytirilishi budjet defitsitini yuzaga keltirib, davlat qarzi ortib ketishiga olib keldi.

Budjet defitsiti va tashqi qarzning bunday tarzda o'zgarishi natijasida moliya tizimida o'rnatilgan KPI ko'rsatkichlariga mutlaqo teskari bo'lgan vaziyat yuzaga kelgan, ya'ni mazkur yo'nalishda ko'rsatkichlar 2025-yilga borib yaxshilanish o'rniga, aniq yomonlashib 85.7 ballni tashkil etadi. "Heritage Foundation" tashkiloti O'zbekiston uchun ma'lumotlarni yig'ish metodologiyasini o'zgartirib, konsolidatsiyalashgan budjet ma'lumotlaridan foydalanish natijasida ko'rsatkichlar ya'nada yomonlashib 66.9 ballgacha tushib ketishi mumkin.

6-jadval: O'zbekiston Respublikasida budjet defitsiti hamda tashqi qarz hajmi va amalda kutilayotgan subindikator qiymatlari

№	Subindikator komponentlari	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.
1.1	Budjet defitsiti*	0.68%	-1.40%	-2.23%	-2.42%	-3.14%
	Budjet defitsitining oxirgi 3 yillik o'rtacha qiymati		-0.57%	-0.98%	-2.02%	-2.59%
	Komponent qiymati*		99.4	98.1	91.8	86.6
	Konsolidatsiyalashgan budjet defitsiti		-2.5%	-4.3%	-5.5%	-3.0%
1.2	Konsolidatsiyalashgan budjet defitsitining oxirgi 3 yillik o'rtacha qiymati			-2.7%	-4.1%	-4.3%
	Komponent qiymati**				66.4	63.7
2	Davlat qarzi ^[5]	28.3%	29.7%	39.0%	38.0%	36%
	Komponent qiymati		91.2	84.8	85.6	87.0
Komponentlarning "Iqtisodiy erkinlik indeksi" hisobotida aks etirilishi yillar kesimida						
	Hisobot yillari	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.	2025-y.
	Subindikator qiymati*	98.3	96.6	95.6	89.7	86.7
	Subindikator qiymati**			85.4	69.6	67.8

*"Heritage Foundation" tashkiloti foydalanadigan ma'lumotlar bazasida (<https://data.imf.org/regular.aspx?key=61037799>) O'zbekiston Respublikasining budjet defitsiti sifatida "Davlat budjeti" va "Davlat maqsadli jamg'armalari"ning yil yakunlari bo'yicha saldosi olinadi. Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining daromadlari va xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlar ochiq taqdim etilmaganligi sababli aks ettirilmay kelingan.

**Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining ma'lumotlari ochiq ravishda taqdim etilishi, "Heritage Foundation" tashkilotining O'zbekiston Respublikasi uchun ma'lumotlarni yig'ish jarayoniga ta'sir o'tkazishi mumkin. Natijada konsolidatsiyalashgan budjet ma'lumotlaridan foydalanish subindikator qiymatini yanada pastlatib yuboradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

"Heritage Foundation" tashkilotiga tegishli bo'lgan Iqtisodiy erkinlik indeksining soliq yuki, davlat xarajatlari va fiskal salomatlik pozitsiyalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining 02.06.2020-yil PF-6003-sonli farmonida o'rnatilgan KPI ko'rsatkichlariga erishish imkoniyatlarini tahlil qilish davomida quyidagi xulosalarga kelindi.

Soliq yuki yo'nalishi bo'yicha:

- "Heritage Foundation" soliq yuki subindikator O'zbekiston Respublikasi uchun 2019–2020-yilgi ma'lumotlardan foydalanishi natijasida 2022–2023-yillar uchun o'rnatilgan KPI ko'rsatkichlariga qiyinchiliklarsiz erishish mumkin;
- 2030-yil uchun o'rnatilgan KPI ko'rsatkichlari budjet tizimida keskin o'zgarishlar talab qiladi, ya'ni soliq tushumlarining YAIMga nisbatini va foyda solig'i stavkasini 12%gacha tushirish talab etiladi.

Davlat xarajatlari yo'nalishi bo'yicha:

- davlat xarajatlarning YAIMga nisbati 2018-yildan boshlab o'sib kelayotgan sababli, kelgusida mazkur subindikatorning qiymati hozirgi 78.1 ballik ko'rsatkichdan 66.7 ballgacha tushib ketadi va bu yo'nalishdagi KPI ko'rsatkichlariga erishishni imkonsiz holga olib keladi;
- O'zbekiston Respublikasi KPI ko'rsatkichlariga erishish uchun Davlat xarajatlarning YAIMga nisbati 2022-yil 26.2%gacha, 2030-yil uchun 18.8%gacha tushirish talab etiladi.



- KPI ko'rsatkichiga erishish maqsadida Davlat xarajatlarining keskin qisqartirilishi kelajakda mamlakat rivojiga emas, balki iqtisodiyotning retsessiyaga tushib qolishiga olib keladi.

Fiskal salomatlik yo'nalishi bo'yicha:

- mazkur yo'nalishda 2022-yilgi KPI ko'rsatkichlariga erishish uchun O'zbekiston Respublikasi yil yakuniga qadar YAIMning 10%ga teng bo'lgan Davlat qarzini so'ndirishi kerak bo'ladi;
- subindikatorning birinchi komponenti (budjet defitsitining oxirgi 3 yillik o'rtachasi) – 2.1%ni tashkil etishi natijasida, hozirda YAIMning 38%ga teng bo'lgan Davlat qarzini to'liq qaytarib berib ham 2023-yilgi KPI ko'rsatkichlariga erishib bo'lmaydi;
- davlat qarzining xavfsiz darajasi sifatida YAIMning 60%, konsolidatsiyalashgan budjeti taqchilligining YAIMning 3% atrofida bo'lishi 2030-yil uchun ko'rsatilgan 99.5 ballik KPI ko'rsatkichi o'rniga 78.4 ballik darajagacha tushirib yuboradi;
- 2025-yilga borib "Heritage Foundation" tashkiloti O'zbekiston uchun konsolidatsiyalashgan budjet ma'lumotlaridan foydalanishi natijasida ko'rsatkichlar ya'nada yomonlashib 66.9 ballgacha tushib ketishi mumkin.

Bundan tashqari Iqtisodiy erkinlik indeksining soliq yuki va davlat xarajatlari pozitsiyalarida "to'liq erkinlikni kafolatlagan" davlatlar tahlili, mazkur yo'nalishlardagi mutlaq erkinlik mamlakatning rivojlangan darajasini yoki iqtisodiyotining barqarorligini anglatmasligini ko'rsatdi:

- soliq yuki bo'yicha 100 ballik ko'rsatkichni qayd etayotgan mamlakatlar asosan yoqilg'i-energetika mahsulotlarini eksport qiluvchi (BAA, Baxreyn, Saudiya Arabistoni, Qatar, Quveyt, Oman) yoki nisbatan kichik bo'lgan orol (Timor-Leste, Maldiv, Bagama) davlatlardir;
- davlat xarajatlari bo'yicha yuqori ko'rsatkich qayd etayotgan mamlakatlar asosan Afrika (Gaiti, Kongo Demokratik Respublikasi, Nigeriya, Efiopiya, Madagaskar, Sudan, Gvineya, Chad) mamlakatlari sanaladi;
- davlat xarajatlari pozitsiyasida yuqori natijalar qayd etgan mamlakatlarda inson rivojlanish indeksining o'rtacha ko'rsatkichi – 0.608 (MEDIUM HUMAN DEVELOPMENT), eng quyi o'rindagi davlatlarning inson rivojlanish indeksidagi o'rtacha qiymati – 0.819ni (VERY HIGH HUMAN DEVELOPMENT) tashkil etadi;
- davlat xarajatlari yo'nalishdagi "ijobiy" natijani salbiy ko'rsatkich sifatida qabul qilish mumkin;
- budjet defitsiti va davlat qarzi ustidan o'rnatilgan nazorat fiskal salomatlik pozitsiyasidagi ijobiy natija garovi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasidagi mavjud vaziyat hamda Iqtisodiy erkinlik indeksining baholash metodologiyasining o'ziga xosligidan kelib chiqib quyidagilar tavsiya qilinadi:

1. Davlat xarajatlari hajmi, soliq stavkalari yoki iqtisodiyotga nisbatan soliq yukini kamaytirish bo'yicha takliflar qandaydir reytingni yaxshilash maqsadida emas, eng avvalo mamlakat manfaatlarini ko'zlagan holda aniq hisob-kitoblar asosida qabul qilinishi kerak.
2. Budjet intizomini oshirgan holda budjet defitsitini 1%dan ortib ketmasligini ta'minlash, "Korrupsiyani idrok qilish" indeksida O'zbekiston 2021-yil uchun 28 ball to'plagan holda 180 mamlakat ichida 140-o'rinda ekanligini inobatga olgan holda, jalb qilingan qarz mablag'larining maqsadli va samarali sarflanishi ^[6] ustidan nazorat o'rnatish.

Foydalangan adabiyotlar:

1. 2022 Index of Economic Freedom, Explore the Data. Internet resurs: <https://www.heritage.org/index/explore?view=by-region-country-year&u=637999400520368565>
2. 2022 Index of Economic Freedom, Methodology. Internet resurs: https://www.heritage.org/index/pdf/2022/book/02_2022_IndexOfEconomicFreedom_METHODODOLOGY.pdf
3. T. Ishmetovning 19.12.2022-yil Oliy Majlis Qonunchilik palatasining majlisidagi ma'ruza nutqi. Internet resurs: <https://www.youtube.com/watch?v=qDBJzuOUUH8>
4. Republic of Uzbekistan: 2022 Article IV Consultation-Press Release; Staff Report; and Statement by the Executive Director for the Republic of Uzbekistan. Country Report No. 2022/189. June 22, 2022. Internet resurs: <https://www.imf.org/en/Publications/CR/Issues/2022/06/22/Republic-of-Uzbekistan-2022-Article-IV-Consultation-Press-Release-Staff-Report-and-519919>
5. Moliya vazirligi. "O'zbekiston Respublikasi davlat qarzi holati va dinamikasi sharhi (2021-yil uchun)", 2-bet. Internet resurs: https://admin.openbudget.uz/media/post_attachments/Debt_Bulletin_4Q_2021.pdf
6. A. Sooray, R. Dzhumashev and F. Schneider, "How Does Corruption Affect Public Debt? An Empirical Analysis" World Development (2016), <http://dx.doi.org/10.1016/j.worlddev.2016.08.020>

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.